

O'SMIRLARDA ISHONCH HISSI VA UNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI

Saidova Yulduzxon Akbarjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada o'smir yoshdagi bolalarning psixologi holati, ishonchni qanday paydo bo'lishi, do'stlari, ota-onasiga, oilasiga, bo'lgan ishonchini aniqlash oshirish to'g'risida ma'lumotlar ko'rsatilgan. Ishonch borasida olib borilgan ishlar asosan o'smir yoshdagi bolalarning idrokini, xotirasini, diqqatini oshirishda o'zlariga bo'lgan ishonchlarini oshirishga yordam berish. Ishonchini oshirishda asosan oila a'zolari, maktab o'qituvchilari, do'stlarini o'rni qay darajada ekanligini yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: o'smir, ishonch hissiyot, mehr, oqibat, diqqat, hayol, idrok, tafakkur, fikrlar mosligi, oiladagi farovonlik.

Аннотация: В статье приведены сведения о психологическом состоянии детей-подростков, о том, как определить доверие друзей, родителей, семьи и как повысить доверие. Работа проводимая над уверенностью направлена главным образом на улучшение восприятия памяти внимания и уверенности в себе детей подростков. Подчеркнута роль членов семьи школьных учителей и друзей в повышении доверия.

Ключевые слова : Подросток, уверенность эмоции привязанность внимание воображение восприятие мышление конгруэнтность выделено.

Annotation: The article shows information about the psychological state of adolescent children, how to identify trust in friends, parents, and family. The role of family members, school teachers, and friends in increasing confidence has been highlighted

Key words : Adolescent, confidence, emotion, affection, attention, Imagination, perception, thinking, compatibility of thoughts, well-being in the family.

KIRISH

Mamlakatimiz barcha sohalarda ilg'or va taraqqiy etib borayotgani hech birimizga sir emas, zero O'zbekiston mustaqillikga erishgach har jabhada salmoqli ishlarni amalga oshirib, tub islohotlarni olib borgan, hususan ta'lim tizimida ham o'zgarishlar bo'lganligi va bu o'zgarishlarning barcha barchasi yosh avlod va uning kelajagiga qaratilganligi bejiz emas. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" asarida ta'kidlaganidek. "Maktab - faqatgina ta'lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma'naviyat beshigiga farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o'rgatuvchi dargohga aylanishi zarur"

Izchil bilimlar hamda amaliy malakalarga ega bo'lgan va yangi zamonaviy muammolarni muvaffaqiyatli hal qila oladigan mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Respublikamizning rivoji, ravnaqi yoshlarga bog'liq ekan, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash kerak. O'qituvchi bilan o'smirning hamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish bo'lajak mutaxassislar kasbiy tayyorgarligining asosiy omillaridan biridir. Mamlakatimizda yangi "Ta'lim to'g'risidagi qonuning" loyihasining muhokama qilish jarayonida - o'z kasbining zukkolari, o'ta zehni,

kuchli intellektual salohiyat egasi, o'zida mukammal dunyoqarash va boy ma'naviyatni mujassamlashtirish, ularni jahon hamjamiyatida raqobatbardoshligiga erishishni maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, o'smir va o'spirin shaxsini, kelajak avlodni o'zining sog'lom va mustaqil fikriga ega bo'lgan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash hozirgi kunda ko'ndalang qo'yilgan asosiy vazifalardan biriga aylangan. Bugungi kunda psixologlarni qiynayotgan muammolardan biri bu o'quvchilar guruhlarida shaxslararo munosabatlarni, shaxs xususiyatlarini iloji boricha to'liq va mukammal o'rganib chiqishdir.

O'smirlarda odamlarga ishonchning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash.


ADABIYOTLAR TAHLILI METODOLOGIYASI.

“Ishonch” tushunchasi odamlar o'rtasidagi kundalik munosabatlar amaliyotini aks ettirish oddiy holdir degan fikrinyam ilgari surishgan. Sharq allomalaridan Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Rus olimlaridan B.F.Borshnev, V.N.Kulikov, T.P.Skripkina bevosita ijtimoiy-psixologik omillar o'z tadqiqotlarida ishonch tushunchasini qanday paydo bo'lganini ishonchni avvalo oilada, do'stlar davrasida, maktab davrlarida paydo bo'lishini ya'ni ishonchni paydo bo'lishini o'smir yoshdagi bolalarda asosan kamroq chunki u yoshda ko'proq mehrga, shirin so'zga muhtojligini aytib o'tishgan (1.79 b)

Tahlillar shuni ko'rsatadiki ishonch tushunchasini paydo bo'lishi, asosan oilaga, muhitga, fikr mulohazalarga ijtimoiy-psixologik omillar, mehnat jarayonlari, qo'rquv, ishonchsizlikni yengishda asosan mamalakatimiz olimlaridan M.Adilova, E G'oziyev, Adizova T.M va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etishgan.

NATIJALAR

Natijalarimiz shuni ko'rsatadiki tadqiqotimiz Farg'ona shahrida joylashgan 4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi va Oltiariq tumani 17- umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirildi. Maktablarning 7-sinf o'quvchilari tadqiqotda ishtirok etishlari avvaldan rejaga kiritilgan bo'lib, tajribada ishtirok etishlari taklif etildi. 6-maktabning 7-A sinfdan 25, 7-B sinfdan 30 nafar, 17- maktabdan 7-B sinfdan 32, 7-V sinlaridan 25 nafardan sinluvchilar qatnashdi. Tadqiqotimizda shahar maktabidan 55, qishloq maktabidan 57 nafar o'quvchilar tajribada ishtirok etdilar. Har bir ishtirokchiga test matni berildi. Ularning har biriga test bilan ishlayotganda amal qilish lozim bo'lgan harakatlar tushuntirildi. Dastlab o'tkazilgan «Odamlarga ishonasizmi?» so'rovnomasi bo'yicha natijalar quyidagicha bo'ldi.




1-diagrammada ko'rinib turibdiki, respondentlarning 34 foizi ishonuvchan, ochiq va rashq nimaligini bilmaydigan, atrofdagilar bilan tez til topishib keta oladi, ko'ngilsizliklarni xafagarchiliklarni tez unutadigan toifa ekanliklari aniqlandi. 56 foiz ishtirokchilar har doim ham boshqalarga ishonmasliklari, begona va yo'lida uchragan kishilar bilan darhol hamkorlik qilishga shoshilmasliklari, ishdan tez ko'ngil sovish, atrofdagilarga emas balki, o'zlariga bo'lgan ishonch hissini ortiqligi kuzatildi. 10 foiz respondentlarda faqat o'ziga bo'lgan ishonchni yuqoriligi, mustaqil harakat, qarorga kelish kabi xususiyatlari yuqori darajada shakllangan biroq boshqalarning manfaatlari, qiziqishlari, orzu umidlari va armonlari umuman qiziqitirmasligi kuzatildi. Mazkur holat bo'yicha olingan natijalarning ishonchligi quyidagi ko'rinishni berdi.

	umumiy ko'rsatgich
o'рта arifmetik qiymat	8,29
St.Og'ish	3,55134062
Assimetriya	0,641191441
Ekstsess	-0,388973665
Xmin	3
Xmaks	17

Odamlarga ishonish bo'yicha o'tkazilgan test natijalariga ko'ra sinaluvchilarning umumiy ballari 3 balladan 17 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari $8,29 \pm 3,55$ chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 67 foizini qamrab olmoqda.

Ushbu testning umumiy natijasi bo'yicha asimmetriya va ekstsess ko'rsatgichlari -1 dan Q1 gacha oraliqda ekanligi mazkur ko'rsatgichlarning statistik taqsimlanishining qo'ng'iroqsimon shakldagi simmetrik normal taqsimlanish qonuniga yaqin ekanligini ko'rsatadi (1-rasm).



Ular asosan yolg'iz qolganda fikr mulohazalarini bildiradi boshqalarni so'zlarini ma'qullamaydi. Ular asosan o'ziga ishonishni ma'qul deb ko'rishadi.

	yigit	qiz	shahar	qishloq
O'rta	8,90625	8	9,96	6,62
St.og'ish	3,44879	3,586875	3,891173	2,156055
Asimmetra	0,683407	0,677786	0,035733	0,236313
Ekssess	-0,39249	-0,31925	-1,10086	0,66717
Xmin	3	3	3	3
Xmaks	16	17	17	12

Odamlarga ishonish bo'yicha o'tkazilgan test natijalariga ko'ra o'g'il bolalarning ballari 3 balldan 16 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari $8,91 \pm 3,45$ chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 71 foizini qamrab olmoqda. Qiz bolalarning ballari 3 balldan 17 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari $8 \pm 3,58$ chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 63,2 foizini qamrab olmoqda.

O'g'il va qiz bolalarning natijasi bo'yicha asimmetriya va ekssess ko'rsatgichlari -1 dan Q1 gacha oraliqda ekanligi mazkur ko'rsatgichlarning statistik taqsimlanishining qo'ng'iroqsimon shakldagi simmetrik normal taqsimlanish qonuniga yaqin ekanligini ko'rsatadi.

Odamlarga ishonish bo'yicha o'tkazilgan test natijalariga ko'ra shahar hududi bo'yicha ballari 3 balldan 17 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari $9,96 \pm 3,89$ chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 54 foizini qamrab olmoqda. Qishloq hududi bo'yicha esabu ko'rsatgich 3 balldan 17 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari $6,62 \pm 2,15$ chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 58 foizini qamrab olmoqda.

Shahar hududining natijasi bo'yicha eksstess ko'rsatgichlari -1 dan yuqori ko'rinishda bo'lganligi uchun mazkur ko'rsatgichlarning statistik taqsimlanishining yuqori qismlari o'ng tomonda joylashganligidan dalolat beradi va bu sinaluvchilarning natijalari nisbatan yuqoriligini ko'rsatadi (diagramma3).

Qishloq hududining natijasi bo'yicha asimmetriya va eksstess ko'rsatgichlari -1 dan Q1 gacha oraliqda ekanligi mazkur ko'rsatgichlarning statistik taqsimlanishining qo'ng'iroqsimon shakldagi simmetrik normal taqsimlanish qonuniga yaqin ekanligini ko'rsatadi.

3-diagramma orqali farq yo'qdek ko'rinishi mumkin lekin chastatali tahlil qilinganda ularning o'rtasidagi farq ko'rinadi. Ushbu diagrammadan ko'rish mumkinki shahar hududida yashovchi sinalluvchilarning o'ng tomonda ya'ni yuqori ball ko'pligini ko'rsatadi. Qishloq hududining natijalari esa chap tomonda bu esa natijalarda past ko'rsatgichning ko'pligini ko'rsatadi. Bu esa ularda shahar aholisiga qaraganda odamlarga ishonish yuqoriligidan dalolat beradi (2-rasm).



Bu natijalar yigit va qizlarda ishonch hissini qay darajada ekanligini farqlanganligini ko'rsatmoqda. Bunda asosan ko'proq qiz bolalarda ishonch hissi pastroq yigitlarda ishonch hissi yuqoriroq ekanligi isbotlandi. Bunga asoslangan holda yigitlarda ishonch hissi qizlarga qaraganda kuchliroq ya'ni ishga qo'l urishdan avval aniq ishonch hosil qilib, so'ng faoliyatni boshlashi, ikkilanish holati yuz bermasligi kuzatildi. Statistik tahlil qilinganda ular orasidagi farqlar mavjudligi aniqlandi. Natijalar tahlili quyida 2- diagrammada keltirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

9. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.

Toshkent; O'zbekiston -2017-104b.

10. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T;"O'zbekiston".2017-488b.

11. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent; O'zbekiston-2017.-104 b.

12. Adizova T.M. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari.- Toshkent, TDPU, 1997.

13. Adilova M., Raxmonova D.R. Farzandlar mehrimizga muhtoj. Ayollar psixologiyasi: anhanaviylik va o'zgaruvchanlik. Respublika ilmiy - amaliy anjumani mahruzalari to'plami. - Toshkent, 2002.

14. Анастаси А. Психологическое тестирование-М 1982 Т2.

15. Баратов Ш. Методы изучения личности студента.-Ташкент. Учитель 1995.